

MUSTAQIL HAYOT BO‘SAG‘ASIDA MEN TANLAGAN YO‘L

Xudoyberdiyeva Umida G‘ayratovna

*Toshkent kimyo-texnologiya instituti akademik litseyi
tarbiya fani o‘qituvchisi*

Inson hayotida shunday mas‘uliyatli va taqdir bilan bog‘liq bosqich bo‘ladiki, u faqatgina orzu qilish emas, balki o‘sha orzular uchun javob berishni ham talab etadi. Bunday jihatni mustaqil hayot bo‘ sag‘asi desak bo‘ladi. Ta‘lim muassasasini tamomlab, mehnat faoliyatiga qadam qo‘yayotgan yosh mutaxassis sifatida bugun men aynan ana shunday bosqichda turibman. Hayot menga nafaqat imkoniyatlar, balki sinovlar, talablar va mas‘uliyatlar bilan yuzlanmoqda.

Yosh mutaxassis bo‘lish faqat diplomga ega bo‘lish degani emas. Ushbu bilimni amaliyotda isbotlash, o‘z ustida doimiy ishlash va jamiyat ishonchini oqlash demakdir. Men tanlagan yo‘l ham ana shu tamoyillarga asoslangan. Chunki bugungi kunda bilimli bo‘lishning o‘zi yetarli emas, uni hayotga tatbiq eta olish, yangilikka intilish va zamon bilan hamnafas bo‘lish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mustaqil hayot menga eng avvalo tanlov erkinligini berdi. Ammo bu erkinlik mas‘uliyat bilan uyg‘unlashgandagina mazmun kasb etadi. Bugun qabul qilayotgan har bir qarorim kasb tanlash, ishga munosabat, jamiyatdagi o‘rnim kelajak hayotim poydevorini belgilaydi. Shu sababli men oson yo‘lni emas, balki mehnat va rivojlanishga asoslangan yo‘lni tanladim.

Yurtimizda yoshlar uchun yaratilayotgan imkoniyatlar ochiq va adolatli mehnat bozori, malaka oshirish dasturlari, tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari meni yanada dadil qadam tashlashga undaydi. Berilgan imkoniyatlardan samarali foydalanish esa har bir yosh mutaxassisning fuqarolik burchidir. Men ham o‘z bilim va tajribamni Vatan ravnaqi, jamiyat taraqqiyoti yo‘lida safarbar etishni o‘z oldimga maqsad qilib qo‘yganman.

Albatta, mustaqil hayot yo‘li silliq va muammosiz bo‘lmaydi. Ishdagi dastlabki qiyinchiliklar, tajriba yetishmasligi, ba‘zan o‘ziga bo‘lgan ishonchning sinovdan o‘tishi bularning barchasi yosh mutaxassis uchun tabiiy jarayondir. Ammo ana shu sinovlar insonni chiniqtiradi, uni kuchli va mas‘uliyatli shaxs sifatida shakllantiradi. Men qiyinchiliklarni to‘siq emas, balki tajriba maktabi deb qabul qilaman.

Men tanlagan yo‘lning asosiy mezonlari halollik, kasbiy mas‘uliyat va fidoyilikdir. Jamiyatda munosib o‘rin egallash, jamoa ishonchini qozonish va o‘z kasbim orqali odamlar hayotiga foyda keltirish mening hayotiy maqsadimdir. Yosh mutaxassis sifatida men

nafaqat o‘zim uchun, balki kelajak avlodlar uchun ham mas‘ul ekanimni chuqur his qilaman.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, mustaqil hayot bo‘lag‘asida turib men ongli va mas‘uliyatli tanlov qildim. Bu tanlov bilim va mehnatga tayangan holda yashash, doimiy izlanish va Vatanga xizmat qilish yo‘lidir. Ishonchim komilki, ana shu yo‘l meni shaxsiy kamolot bilan birga jamiyat taraqqiyotiga hissa qo‘shadigan yetuk mutaxassis darajasiga olib chiqadi.